ABDURASHID NURMURODOVNING “QONLI YO‘RGAKLAR” ASARIDA TUSH MOTIVI VA MIFOLOGIK TAFAKKUR IZLARI

Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna
Alfraganus University NOTT
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
O‘zbekistan, Tashkent
shaxnozayuldoshova1991@gmail.com
Orcid ID 0009-0009-9553-6353

Annotatsiya. Tezisda Abdurashid Nurmurodovning 1991-yilda nashr etilgan “Qonli yo‘rgaklar” hujjatli asarida Afg‘on urushi qatnashchilarining og‘zaki hikoyalari tarkibidagi tush motivi va mifologik tafakkur izlari tahlil qilinadi. Asardagi bashoratli tushlar, ajalning odam qiyofasida namoyon bo‘lishi, yulduz va olma ramzlari, ko‘z tegishidan saqlanish, chaqaloq qulog‘iga azon aytish odati hamda qarg‘ish va ta’ziya formulalari xalq e’tiqodlari bilan qiyosiy aspektda o‘rganiladi. Tahlil folklorshunoslikdagi “memorat” tushunchasi asosida olib boriladi. O‘zbek, belarus va ukrain askarlarining tushlari qiyoslanib, ularda umuminsoniy va milliy-turkiy unsurlar ajratib ko‘rsatiladi. Bashoratli tush motivining “Kitobi Dada Qo‘rqud” eposidagi o‘xshash epizod bilan tipologik aloqasi ham qayd etiladi. Xulosada travmatik tajriba sharoitida an’anaviy mifologik tafakkur qayta faollashishi va zamonaviy hujjatli nasr folklor materialini saqlovchi manbaga aylanishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: folklor, memorat, tush motivi, mifologik tafakkur, xalq e’tiqodlari, marosim folklori, hujjatli nasr, Afg‘on urushi.

THE DREAM MOTIF AND TRACES OF MYTHOLOGICAL THOUGHT IN ABDURASHID NURMURODOV’S “BLOOD-STAINED SWADDLING CLOTHES”

Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna
Doctor of Philosophy in Philological Sciences
Acting Associate Professor
at the Department of Foreign Languages,
Alfraganus University,
Uzbekistan, Tashkent
shaxnozayuldoshova1991@gmail.com
Orcid ID 0009-0009-9553-6353

Abstract. The paper examines the dream motif and traces of mythological thinking in the oral testimonies of Afghan war veterans collected in Abdurashid Nurmurodov's documentary book "Qonli yo'rgaklar" (Bloody Swaddling Clothes, 1991). Prophetic dreams, personified death, the symbols of the star and the apple, protection against the evil eye, the birth-rite of reciting the azan, and formulas of cursing and condolence are analysed comparatively using the folkloristic concept of the memorate. Dreams of Uzbek, Belarusian and Ukrainian soldiers are compared to separate universal and Turkic features, and a typological parallel with the prophetic dream in the Book of Dede Korkut is noted. The study shows that traumatic experience reactivates traditional mythological thinking, turning modern documentary prose into a repository of living folklore.

Keywords: folklore, memorate, dream motif, mythological thinking, folk beliefs, ritual folklore, documentary prose, Afghan war.

KIRISH

XX asrning 80-yillarida Afg'onistonda kechgan urush o'zbek xalqi tarixida og'ir iz qoldirdi. Bu voqealar haqidagi eng muhim manbalardan biri – urush qatnashchilarining o'zlari so'zlab bergan og'zaki hikoyalardir. Abdurashid Nurmurodovning "Qonli yo'rgaklar" (Toshkent: O'zbekiston, 1991) kitobi ana shunday hikoyalar asosida yaratilgan. Asarning birinchi qismida muallif Afg'onistonda

yaralangan ukasi Vohid va o‘g‘lining xavotirida vafot etgan onasi haqida hikoya qiladi, asosiy qismini esa O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ukraina, Belarus, Latviya va Rossiyadan bo‘lgan ellikdan ortiq sobiq askarning ism-sharifi, tug‘ilgan yili va yashash joyi ko‘rsatilgan hikoyalari tashkil etadi. Bu hikoyalar shakl jihatidan hujjatli nasr bo‘lsa-da, mazmunan xalq og‘zaki ijodining jonli namunalari – shaxsiy tajribaga asoslangan e’tiqodiy hikoyalarni o‘zida saqlagan.

Folklorshunoslikda bunday matnlar **memorat** deb ataladi: bu – hikoyachining o‘zi yoki yaqinlari boshidan kechirgan g‘ayritabiiy hodisa haqidagi, xalq e’tiqodlariga tayanuvchi birinchi shaxs tilidagi hikoya (von Sydow, 1948; Honko, 1964). Tezisning maqsadi – “Qonli yo‘rgaklar”dagi memoratlarda tush motivi va mifologik tafakkur izlarini aniqlash hamda ularni o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar e’tiqodlari bilan qiyoslashdir.

Bashoratli tush motivi. Asarda eng ko‘p uchraydigan mifologik unsur – oldindan ogohlantiruvchi tushdir. Tojikistonning Qo‘rg‘ontepa tumanidan bo‘lgan Safarmahmud Boboyev Afg‘onistonga kirishdan bir kun oldin otasini tushida ko‘radi: “Bolajonim, sen ofitserlar bilan birga ketma, sen meni yaxshi ko‘rgan bolamsan-ku”. Keyingi safar otasi yana tushiga kirib, “Bugun borma, borsang, bolam emassan” deydi; ikkala holatda ham askar minaga duch keladi (Nurmurodov, 1991, 35-b.). Muallifning onasi esa o‘g‘lidan xabar kelmasdan oldin uni har kuni tushida ko‘radi: “Meni yordamga chaqiradi. Ovozini eshitaman, ammo o‘zini izlab topolmayman” (21-b.). Xalq e’tiqodida tush ruhning tanadan chiqib sayr qilishi va kelajakni ko‘rishi sifatida talqin qilinadi; ota-onaning tushdagi ogohlantirishi esa urug‘ va oila himoyasiga ishonch bilan bog‘liq. Bashoratli tush turkiy eposning ham an’anaviy motividir: “Kitobi Dada Qo‘rqud”da Salur Qozon uyi talanishidan oldin yomon tush ko‘radi (Lewis, 1974). Shu ma’noda askarlarning tushlari qadimiy epik motivning zamonaviy memoratdagi davomi sifatida baholanishi mumkin.

Ajalning qiyofalanishi va “arvoh” tasavvuri. Toshkentlik Abduvohid Ergashev operatsiya paytida ko‘rgan tushida o‘ziga o‘xshagan bolani uchratadi va u: “Men o‘limman. Seni joningni olishga keldim. Keyin bu qishloqda sening arvohingga aylanib kezib yuraman”, – deydi; otasi kelgach, “arvoh” erib ketib, o‘rnida qop-qora dog‘ qoladi (39-b.). Bu yerda ajalning inson qiyofasida, aynan o‘lim kutayotgan odamning qiyofasida namoyon bo‘lishi va marhum ruhining qishloq atrofida kezib yurishi haqidagi xalq tasavvurlari aks etgan. Ajalning otaning kelishi bilan chekinishi yana ota-ona himoyasi motiviga bog‘lanadi.

Yulduz va olma ramzlari: qiyosiy kuzatish. Belarusiyalik Yura Koverchikning tushida u qazilgan go‘rda yotadi, odamlar ustiga tuproq tashlamay “Yulduzlarni ko‘rib olsin” deyishadi; so‘ng yulduz onasiga aylanib, “Sen qanday bo‘lsang, shunday tirik qolasan” deydi va odamlar “Onasi keldi, endi ko‘ma olmaymiz” deb g‘oyib bo‘lishadi (50-b.). Buxorolik Bahriddin Haydarovning otasi esa o‘g‘li portlagan kuni tushida marhuma xolasi uning qo‘lidagi olmani yemoqchi bo‘lganini, onasi qarshilik ko‘rsatsa ham, olmaning yarmini yeb qo‘yganini ko‘radi. Askarning o‘zi tushni shunday ta’birlaydi: “Bu tushga ishonaman. Yarimta bo‘lib qolganligim uchun...” (74-b.). O‘zbek xalq e’tiqodida har bir insonning osmonda o‘z yulduzi borligi, yulduz uchsa, kimdir olamdan o‘tishi haqidagi tasavvur keng tarqalgan; olma esa ertak va marosimlarda hayot, farzand va umr ramzi sifatida keladi. Belarus askarining tushidagi yulduz–ona obrazi bu ramzning umuminsoniy asosga ega ekanini ko‘rsatsa, olmani “narigi dunyo” vakili bo‘lgan marhuma yaqinning yeyishi va natijada inson tanasining yarmi “olib ketilishi” aynan o‘zbek-turkiy mifologik tafakkuriga xos talqindir.

Marosim va e’tiqod unsurlari. Asarda tug‘ilishdan o‘limgacha bo‘lgan marosimlar bilan bog‘liq qator unsurlar uchraydi. Muallifning onasi o‘g‘lini ko‘rib “Hay bolamay, ko‘z tegmasin, ko‘z tegmasin” deya ko‘kragiga tuflaydi (10-b.) – bu ko‘z tegishidan saqlovchi qadimiy apotropeik odat. Alisher Ismoilov hikoya qilgan voqeada asirga tushgan Muhammad ismli askarni afg‘on mujohidlari uning ismi

Payg‘ambar ismiga mosligi uchun qo‘yib yuboradi va: “Bor, tug‘ilganingda qulog‘ingga azon aytib ismingni qo‘yganga rahmat aytgin”, – deyishadi (54-b.). Shu tariqa chaqaloq qulog‘iga azon aytib ism qo‘yish odati hikoyada askarning hayotini saqlab qoluvchi omilga aylanadi. Ta’ziya sahnalarida esa xalq og‘zaki nutqining an’anaviy formulalari ishlatiladi: o‘g‘lining tobutini qabul qilgan ona tobutga talpinayotgan kelinini “Nafasing o‘chsin” deya qarg‘aydi, hikoyasi oxirida esa muallifga “Boshing toshdan bo‘lsin, bolam” deydi (102-b.); boshqa bir ona “Uyi kuysin, gulday bolamni bu ko‘ylarga solganlarni” deb nola qiladi (26-b.). “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” (30-b.) kabi maqollar ham hikoyachilar nutqining tabiiy qismidir. Bu formulalar B. Sarimsoqov tasniflagan marosim folklori janrlari – yig‘i-yo‘qlov, qarg‘ish va olqishning jonli qo‘llanishini ko‘rsatadi (Sarimsoqov, 1986).

Askar folklori. Ukrainalik Sergey Bogutskiy xizmatini tugatib uyga qaytayotgan askarlar zirhli texnika ustida qo‘shiq aytganini eslaydi: qo‘shiqni “sho‘x o‘zbek yigiti” boshlaydi, unga turli millat vakillari va hatto batalyon komandiri ham jo‘r bo‘ladi; qo‘shiq mazmuni yurt, ota-ona va yaqinlar sog‘inchidan iborat edi (51-b.). Bir necha daqiqadan so‘ng mashina minaga duch keladi va qo‘shiqni boshlagan yigit halok bo‘ladi. Bu epizod askarlar orasida shakllangan ko‘p tilli, ko‘p millatli og‘zaki ijod muhitining guvohligidir.

XULOSA

“Qonli yo‘rgaklar”dagi og‘zaki hikoyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, urush kabi travmatik vaziyatda an’anaviy mifologik tafakkur qayta faollashadi: inson tushuntirib bo‘lmaydigan voqealarni tush, ramz va e’tiqod orqali anglashga intiladi. Asardagi memoratlarda umuminsoniy unsurlar (bashoratli tush, ona obrazining himoyachi kuch sifatida talqin etilishi) bilan bir qatorda milliy-turkiy xususiyatlar (olma ramzi, ko‘z tegishiga qarshi odat, azon aytib ism qo‘yish, qarg‘ish va olqish formulalari) ham aniq ajralib turadi. Bashoratli tush motivining “Kitobi Dada Qo‘rqud” bilan tipologik aloqasi o‘zbek va ozarbayjon folklorini qiyosiy o‘rganish uchun qo‘shimcha material

beradi. Shu jihatdan zamonaviy hujjatli nasr, xususan, urush qatnashchilarining ogʻzaki xotiralari, folklorshunoslik uchun muhim manba sifatida maxsus toʻplanishi va tadqiq etilishi lozim. Bu masala, ayniqsa, S. Aleksiyevichning Afgʻon urushi haqidagi “Цинковые мальчики” (1991) kitobi bilan qiyosiy oʻrganilganda yangi natijalar berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Honko, L. (1964). Memorates and the study of folk beliefs. *Journal of the Folklore Institute, 1*(1/2), 5–19.
2. Imomov, K., Mirzayev, T., Sarimsoqov, B., & Safarov, O. (1990). *Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi*. Toshkent: Oʻqituvchi.
3. Lewis, G. (Trans.). (1974). *The Book of Dede Korkut*. Harmondsworth: Penguin Books.
4. Nurmurodov, A. (1991). *Qonli yoʻrgaklar*. Toshkent: Oʻzbekiston.
5. Sarimsoqov, B. (1986). *Oʻzbek marosim folklori*. Toshkent: Fan.
6. von Sydow, C. W. (1948). *Selected papers on folklore*. Copenhagen: Rosenkilde and Bagger.
7. Алексиевич, С. (1991). *Цинковые мальчики*. Москва: Молодая гвардия.